FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

## 2022-yilning yanvar-aprel oyida

# Farg‘ona viloyatida Xizmatlar sohasining rivojlanishi



Farg‘ona - 2022

*Dastlabki ma’lumotlar*

# Xizmatlar sohasi

**120,1 %**
**O‘sish sur’ati**

**6642,4 мlrd. so‘m**
**Xizmatlar hajmi**

**63,6%**
**Kichik tadbirkorlikning ulushi**

**1701,0 ming so‘m**
**Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar**

Farg‘ona viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko‘lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o‘rin tutadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o‘z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi

*Dastlabki ma’lumotlar*

**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko‘pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko‘riladi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar - aprel oyida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6642,4 mlrd.** so‘mga yetdi. Uning nominal hajmi **1802,6 mlrd**. so‘mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati **120,1 %**ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari

*(2022-yil yanvar-aprel oyida)*

**1802,6 млrd. so‘mga** — Hajmning o‘sishi

**6642,4 млrd. so‘m** — Xizmatlar hajmi

**120,1%** — O‘sish sur’ati



*Dastlabki ma’lumotlar*

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari *(2022- yilning yanvar-mart oyida)* | Hajmi, mlrd. so‘m | 2021- yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %da |
|---|---|---|
| **Xizmatlar - jami** | **6642,4** | **120,1** |
| **shu jumladan:** | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 344,4 | 122,3 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1677,6 | 179,9 |
| Transport xizmatlari | 1162,2 | 109,9 |
| **shu jumladan: avtotransport xizmatlari** | 1071,3 | 105,9 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 155,0 | 105,1 |
| Savdo xizmatlari | 1921,1 | 104,3 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 160,9 | 107,3 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 234,4 | 111,6 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 132,6 | 102,2 |
| Ijara xizmatlari | 128,4 | 95,6 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 170,9 | 106,4 |
| Shaxsiy xizmatlar | 354,9 | 102,4 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 51,8 | 112,9 |
| Boshqa xizmatlar | 148,1 | 105,6 |

*Dastlabki ma’lumotlar*

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur‘atlari taqqoslanishi, %da




Jamiga nisbatan yuqori ulushga ega savdo xizmatlari (**28,9**%), transport xizmatlari (**17,5** %),shuningdek,moliyaviyxizmatlar(**25,3**%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**5,2** %) qayd etildi.

*Dastlabki ma’lumotlar*

## 2022-yil yanvar- aprel oyida ko‘rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, % da

2022-yil yanvar-aprel oyida transport xizmatlari hajmi Farg‘ona viloyatida 1162,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 1071,3 mlrd. so‘mni, jami transport xizmatlarining 92,2 %ni tashkil etadi.



*Dastlabki ma’lumotlar*

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste’mol sohasiga o‘tishini ta’minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma’lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste’molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo‘linadi.

2022-yilning yanvar- aprel oyida, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **28,9**%ni tashkil etdi, bu esa **1921,1** mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.

***Taqqoslash uchun:*** 2021-yilda ularning hajmi **1663,0** mlrd. so‘mga yoki umumiy hajmining **32,1** %iga to‘g‘ri keldi.

## Savdo xizmatlari

| 2022-y. Yanvar- aprel | | 2021-y. Yanvar- aprel |
|---|---|---|
| 1921,1 | Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m | 1663,0 |
| 104,3 | O‘sish sur’ati, %da | 112,1 |

*Dastlabki ma’lumotlar*

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar

*(2022-yilning yanvar-aprel oyida)*



Moliyaviy xizmatlar hajmi **1677,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2021- yilda ularning hajmi **928,5** mlrd. so‘mga teng bo‘lgan.



Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **25,3** %ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2021-yilda ularning ulushi **17,9** %ni tashkil etdi.



O‘tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **749,1** mlrd. so‘mga ko‘payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o‘sishi **179,9** %ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma’lumotlar*

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.



## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

*(2022-yilning yanvar – aprel oyida)*




2022-yilning yanvar-aprel oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlariningHajmi**344,4**mlrd.o‘mdarajasida belgilandi.

2021-yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o‘sish sur’ati **122,3**%ga yetdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2021-yilda ushbu xizmat turi hajmi 278,4 mlrd. so‘m yoki ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,2** %ga teng bo‘ldi. O‘sish sur’ati **122,3** %ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma’lumotlar*

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo‘ladi.

## Ta’lim sohasidagi xizmatlar

| 2022-y. yanvar-aprel | | 2021-y. Yanvar-aprel |
|---|---|---|
| 234,4 мlrd. so‘m | Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi | 193,0 мlrd. so‘m |
| 111,6 % | 2021-yilga nisbatan %da | 119,0% |



2022-yilning yanvar-aprel oyida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **234,4** mlrd. so‘mga yetib, bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **3,5** %ni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan **111,6** %ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma’lumotlar*

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo‘yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



**Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m**

| 2021-y. | 2022-y. |
|---|---|
| 131,2 | 155,0 |

**yanvar-aprel**

2021-yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi 23,8 mlrd. so‘mga ko‘paygan.

*Dastlabki ma’lumotlar*

**Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog‘liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**Yanvar- aprel**

| | 2021-y. | 2022-y. |
|---|---|---|
| Xizmatlar hajmi | 117,1mlrd. so‘m | 132,6mlrd. so‘m |
| Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi | 2,3 % | 2,0 % |



| Hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (2022-yilning yanvar-mart oyida) | Hajmi, mlrd. so'm | O‘sish sur’ati, %da |
|---|---|---|
| **Farg‘ona viloyati** | 6 642,4 | 120,1 |
| | | |
| Farg‘ona sh | 2395,6 | 129,9 |
| Qo‘qon sh | 1101,8 | 133,1 |
| Quvasoy sh | 170,1 | 111,0 |
| Marg‘ilon sh | 476,6 | 109,3 |
| | | |
| Oltiariq t | 235,9 | 110,4 |
| Qo‘shtepa t | 152,5 | 106,5 |
| Bag‘dod t | 147,9 | 105,8 |
| Buvayda t | 242,7 | 110,0 |
| Beshariq t | 166,0 | 111,5 |
| Quva t | 188,2 | 110,5 |
| Uchko‘prik t | 229,0 | 116,3 |
| Rishton t | 172,5 | 110,9 |
| So‘x t | 82,1 | 105,3 |
| Toshloq t | 171,4 | 105,4 |
| O‘zbekiston t | 167,2 | 112,3 |
| Farg‘ona t | 192,8 | 111,0 |
| Dang'ara t | 143,3 | 110,7 |
| Furqat t | 110,7 | 106,6 |
| Yozyovon t | 96,0 | 112,4 |

*) *hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda*

*Dastlabki ma’lumotlar*

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo‘jalik hududlarini o‘zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste‘molini oshirishni ta‘minlaydi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o‘sishi kuzatilmoqda.

## Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari

**Xizmatlar hajmi**

**1701,0 ming so‘m**

**Hajmning o‘sishi**

**346,6 ming so‘m**

**117,7%**

**O‘sish sur’ati**



2022-yilning yanvar-aprel oyida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1701,0** ming so‘mga yetdi.

2021-yilga nisbatan **117,7** %ni tashkil etdi.

***Taqqoslash uchun:*** 2021-yilda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1354,4 ming so‘mni tashkil etdi.

*Dastlabki ma’lumotlar*

2022-yilning 1-may holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **66,3** %, sanoat **21,2** %, qurilish **7,8** %ga yetdi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasi **4,7** %ga to‘g‘ri keladi.

## 2022- yilning 1-may holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, %da

*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




**Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi.**
**Tel.: 73-241-98-82**